

**MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA
YORDAMIDA YUKSALTIRISH CHORA-TADBIRLARI**

Ikrom O'rolovich Baxtiyorov

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi
2I-2021-guruh 1-bosqich talabasi
tel: +998915770425
E-mail: baxtiyorovikrom00@gmail.com*

Humoyiddin Bahriddinovich Shokirov

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi
2I-2021-guruh 1-bosqich talabasi
tel: +998999443853*

Nodirbek Odilovich Toshtemirov

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi
2I-2021-guruh 1-bosqich talabasi
tel: +998992882608*

Suxrob Normo'minovich Ismoilov

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi
2I-2021-guruh 1-bosqich talabasi
tel: +998997178110
E-mail: suxrobismoilov625@gmail.com*

Annotatsiya

Hozirgi zamonaviy dunyoda mamlakatlar yuksalishiga asosiy sababchi bo'lib xizmat qiladigan mamlakat iqtisodiyotidir. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlar ham o'z iqtisodiyotini yuksaltirish orqali cho'qqiga chiqadi. Bu maqolada mamlakat iqtisodiyotini qanday qilib yuksaltirish yoritiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, robotexnika, elektron bozor, raqamli axborot texnologiya, mamlakat iqtisodiyoti, iqtisodiy yuksalish.

KIRISH

Hozirgi kunda zamon talabi bo'lgan raqamli iqtisodiyoning **asosiy mezonlari** Raqamli iqtisodiyot ustuvor bo'lgan axborotlashgan jamiyatga ta'rif berishda iqtisodchilar turli texnologik, iqtisodiy, mehnat, fazoviy, iste'mol va kreativ mezonlardan foydalanadilar.

Texnologik mezon bu yangi texnologiyalar axborotlashgan jamiyatning tug‘ilish belgisi deb qabul qilinadi. Bunda kabelli va yo‘ldosh orqali televideniya, **kompyuter tarmoqlari**, shaxsiy kompyuterlar, yangi ofes texnologiyalari va boshqalar nazarda tutiladi. Texnologik yangiliklarning bunday hajmi ijtimoiy qayta qurishga olib keladi deb tasavur qilinadi, chunki ularning jamiyatga ta’siri juda ham sezilarli darajada bo‘ladi. Yaponiyada aloqa va telekommunikatsiya vazirligi 1975-yildan boshlab, telefon orqali so‘zlashuvlar, axborotni yetkazib berish vositalari hajmini o‘lchash, hisobga olish uchun murakkab texnikadan foydalanadi. U yoki bu tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar masalasida qabul qilinadigan qarorlar ijtimoiy ustuvorliklarni ifodalaydi va bu baholovchi mulohazalar asosida turli texnologiyalar rivojlanadi. Texnologik determinizm texnologiyaga asossiz muhim o‘rin ajratib beradi, lekin texnologiya noijtimoiy hodisa sifatida jamiyat **rivojlanishining asosiy**, ijtimoiy omili bo‘lib hizmat qila olmaydi.

Iqtisodiy mezon esa axborotning iqtisodiy qadr-qimmatini o‘lishini hisobga olishni nazarda tutadi. Yalpi ishlab chiqarishning ichki mahsulotida axborot biznesi ulushining ko‘payishi jamiyat rivojlanishining axborotlashgan jamiyat tomon harakatlanishini bildiradi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasini aniqlash uchun olimlar tomonidan “Yalpi raqamli mahsulot” ko‘rsatkichini kiritish taklif qilinmoqda. U axborot texnologiyalari yoki axborot va intellektual tarkibiy qism yordamida iqtisodiy sektorlarda yaratilgan iste’molchi uchun foydali bo‘lgan axborot, tovar va hizmatlarining bozor qiymatini aks ettiradi. Iqtisodiy mezonni eng birinchilardan bo‘lib, amerikalik olim Fris Maxlup taklif etgan, u axborot sohalariga ta’lim, huquq, noshirlik ishi, ommaviy axborot vositalari va kompyuterlarni ishlab chiqarishni kiritdi. Mark Porat esa birlamchi va ikkilamchi iqtisodiyot sektorlari orasiga farq kiritgan amerikalik olimlardan biri hisoblanadi. Birlamchi sektor aniq iqtisodiy baholanishi mumkin, chunki u bevosita bozor qiymatini yaratadi. Ikkilamchi sektor iqtisodiyot **uchun muhim hisoblansada**, ammo uni iqtisodiy baholanishni amalga oshirish ancha mushkul amal hisoblanadi, chunki u kompaniyalar va davlat korxonalarini ichidagi axborot faoliyatini o‘z ichiga oladi. Axborot jamiyatini aniqlashning iqtisodiy mezoni amerikalik olim, professor Gerbert Shiller ishlarida ham o‘zining nazariy asosini topgan. U “axborot va kommunikatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday innovatsiyalarga nisbatan bozorning o‘rni hal qiluvchi bo‘lib qoladi: axborotlar tovar bo‘lib qolishi kerak, ya’ni ularga kirish yo‘li faqat tijorat asosida bo‘ladi”- degan hulosaga keladi. Bunday holatda axborot ko‘proq har qanday boshqa tovarlarga o‘xshab qoladi. Shillerning ta’kidlashicha, bozor tamoyillari axborot sohasida ham xuddi kapitalistik jamiyatdagidek to‘laligicha ishlaydi. **Shu mezonga mos holda**, ishlab chiqarilgan axborotlarning miqdori va sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularni foyda olish imkoniyati mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda bozor tamoyillariga asosan, qanday ko‘rinishdagi axborotni ishlab chiqarish kerak, kim uchun va qanday shart-sharoitlarda, degan savollarga duch kelinishi tabiiy hol hisoblanadi. Ushbu

iqtisodiy mezonga qarshi quyidagi e'tirozlar ilgari surilmoqda: > axborot sektoriga nimani kiritmoq kerakligi haqidagi masalani hal etishda, yashirin sharh va baholi mulohazani chetlab o'tish mumkin bo'lmay qoladi. Natijada axborot sektorining iqtisodiy ahamiyati bo'rttirib ko'rsatilishi mumkin. Misol uchun, F. Maxlup o'zining «bilimlar sohasi»ga «axborot binolari»ni qurishni kiritadi, bu esa shunga o'xshash binolar, masalan, universitetlar va kutubxonalar qurilishi oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun mo'ljallangan omborxonalar inshootlari qurilishidan keskin farq qilishini nazarda tutadi. M. Porat o'zining «ikkilamchi axborot sektori»ni tadqiq etganda, u har qanday sohani axborot va noaxborot qismlarga bo'lib oladi.

Iqtisodiy yuksalishning birinchi bosqichi

O'zbekiston mustaqillik yillarida mamlakatimizda sanoatning avtomobilsozlik, neft-gaz-kimyoy, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektrotexnika, farmatsevtika, zamonaviy oziq-ovqat va to'qimachilik kabi mutlaqo yangi tarmoqlari barpo etildi. Asaka va Pitnak shaharlarida «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar, Samarqandda «Isuzu» avtobuslari va «MAN» kompaniyasi bilan hamkorlikda yuk avtomobillari ishlab chiqarish bo'yicha yangi zavodlar ishga tushirildi. Neft-gaz-kimyoy tarmog'ida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyoy majmui, Qo'ng'irotda soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi va bir qator boshqa yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar qurildi. Shu bilan birga O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, ishlab chiqarishlar samaradorligini oshirishga doir dasturiy chora-tadbirlar faol amalga oshirilmoqda, ular natijasida 2000-2013 yillarda mehnat unumdorligi 2,1 marta oshib, iqtisodiyotning energiya sarfi 3,2 martaga qisqardi.

Sanoat tarmoqlarining o'sish sur'atlari, (foiz)


(1990 y. = 100 foiz)

	1990y.	2000y.	2013y.
Sanoat - jami	100	123,6	3,7 m.
Elektr energetikasi	100	78,9	85,4
Yoqilg'i sanoati	100	127,3	2,4 m.
Qora metallurgiya	100	58,8	1,8 m.
Rangli metallurgiya	100	87,7	100,9
Kimyo va neft-kimyoy sanoati	100	101,6	3,6 m.

Mashinasozlik va metallga ishlov berish	100	142,2	18,5 m.
O‘rmon, yog‘ochga qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati	100	248,4	19,8 m.
Qurilish materiallari sanoati	100	58,4	1,9 m.
Yengil sanoat	100	159,2	5,0 m.
Oziq-ovqat sanoati	100	150,0	7,5 m.
Boshqa tarmoqlar	100	162,6	7,0 m.

Faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi, sanoat tarmoqlari va ishlab chiqarish infratuzilmasining texnik modernizatsiya qilinishi iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishga xizmat qildi.

Investitsiyalarning o‘shish sur‘atlari, foiz hisobida



Biznes yuritish uchun qulay muhit, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlar keng tizimi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirish yaxlit tizimi mamlakatimiz iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishga yordam berdi. 2013 yilda mamlakat iqtisodiyotiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi YAIMga nisbatan 24,1 foizni tashkil etdi. O‘zlashtirilgan kapital qo‘yilmalar umumiy hajmining 20 foizidan ko‘pini 2,6 milliard dollar umumiy qiymatdagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar tashkil qildi, shuning 78 foizidan ko‘pi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston eksportining tarkibi sezilarli darajada o‘zgardi, eksport monokulturasini – paxtaga bog‘liqlikka barham berildi, uning ulushi 59,7 foizdan 8 foizgacha kamaydi, tashqi savdo jug‘rofiyasi tubdan o‘zgardi, bu mamlakatimizning eksport salohiyatini mustahkamlash imkonini berdi. Masalan,

1990-2013 yillarda O‘zbekistondan mahsulot eksport qilish hajmi 35,2 marta oshdi, bunda keyingi 13 yil mobaynida savdo balansining musbat saldosini barqaror ta’minlanmoqda. Birgina so‘nggi o‘n yil ichida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot, xususan, avtomobil eksport qilish hajmi 11,6 marta, yigirilgan ip eksport qilish hajmi 4,1 marta, trikotaj polotno eksport qilish hajmi 114,8 marta, o‘g‘itlar eksport qilish hajmi 11,3 marta oshdi.

Eksportning tovar tarkibi, % hisobida

	1990y.	2013y.
Paxta tolasi	59,7	7,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	9,5
Kimyoviy mahsulotlar	2,3	3,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	17,1	30,1
Qora va rangli metallar	4,6	6,1
Mashina va asbob-uskunalar	1,7	5,3
Xizmatlar	1,3	18,9
Boshqalar	9,4	18,7

Agar 1990-yillarning boshida respublikamiz tashqi savdosi faqat MDH mamlakatlari bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda tashqi savdoning 40 foizidan ko‘pi Osiyo mamlakatlari, 15 foizi Yevropa mamlakatlari bilan amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida temir yo‘l aloqasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish yuzasidan keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirildi. Yangi temir yo‘llar, shu jumladan Navoiy – Uchquduq – Sulton Uvaystog‘ – Nukus yo‘nalishi bo‘yicha Amudaryo daryosidan o‘tuvchi 342 km uzunlikdagi, Toshg‘uzor – Boysun – Qumqo‘rg‘on yo‘nalishi bo‘yicha dengiz sathidan 1500 metr balandlikdagi tog‘li dovon orqali o‘tib, Afg‘onistonning shimoliy chegaralariga chiquvchi 223 km uzunlikdagi yangi temir yo‘l qurildi va 345 km uzunlikdagi Toshkent – Samarqand, 66 km uzunlikdagi Toshkent – Xo‘jakent va 115 km uzunlikdagi To‘qimachi – Angren temir yo‘l liniyalari elektrlashtirildi. 2011 yilda Toshkent – Samarqand yo‘nalishi bo‘yicha «Talgo-250» zamonaviy qulay poyezdlari negizida «Afrosiyob» yuqori tezlikka ega yo‘lovchi poyezdi foydalanishga topshirildi. 2013 yilda transmilliy transport koridorini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 19 km

uzunlikdagi yer osti yo‘li qurilishini o‘z ichiga olgan 125 km uzunlikdagi Angren-Pop yangi elektrlashtirilgan temir yo‘l qurilishi boshlandi. Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llarini rivojlantirish dasturining amalga oshirilishi doirasida so‘nggi yillarda qariyb 2 ming km avtomobil yo‘llari, shu jumladan O‘zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiruvchi 1,5 ming km uchastka qurilib, rekonstruksiya qilindi. Farg‘ona vodiysini mamlakatimizning markaziy qismi bilan bog‘lovchi ikkita yer osti yo‘li qurilishini o‘z ichiga olgan Qamchiq dovoni orqali o‘tuvchi eng yuqori xalqaro talablarga javob beradigan avtomobil yo‘li foydalanishga topshirildi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda 20 dan ortiq xalqaro transport koridorlari ishlab turibdi, shundan 2 ta yirik xalqaro avtomobil yo‘li G‘arbiy Yevropa davlatlarini Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan bog‘laydi.

O‘zbekistonda havo transportini rivojlantirish va yangilash doirasida G‘arbda ishlab chiqarilgan samolyotlarga texnik xizmat ko‘rsatish majmui barpo etilib, aeroportlar rekonstruksiya qilindi, O‘zbekistonning butun hududida (MDH)da havo harakatini boshqarishning eng yaxshi tizimlaridan biri sifatida e‘tirof etilgan navigatsiya tizimi takomillashtirildi. Bugungi kunda samolyotlar parkidan faqatgina «Boing» va «Airbus» kabi jahonda yetakchi hisoblangan ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy havo kemalari joy olgan. Bortiga O‘zbekiston bayrog‘i o‘rnatilgan samolyotlar Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning 40 dan ortiq mamlakatiga parvoz qilmoqda. Mustaqillik yillarida xizmatlar ko‘rsatish sohasi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng istiqbolli va jadal rivojlanuvchi tarmog‘iga aylandi. Agar 2000 yilda YAIM tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 37,0 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2013 yil yakunlariga ko‘ra bu ko‘rsatkich 53 foizga teng bo‘ldi.

Iqtisodiy yuksalishida raqamli texnologiyani o‘rni

Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o‘rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, joriy yilning Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e‘lon qilingani bejiz emas.

Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash borasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o‘ta muhim va dolzarb vazifalar qo‘yilgan. **“Raqamli Toshkent”** konsepsiyasi **“Xavfsiz shahar”** yirik loyihasi bilan bevosita bog‘liq. Mazkur loyihani 2019–2023 yillarda respublikamizning barcha hududida bosqichma-bosqich joriy etish zarurligi belgilangan. Birinchi bosqichda Toshkent shahrida loyihaning yagona texnologik platformasini yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu yil 28 *aprel kuni* Prezidentimizning **“Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy**

etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini **2 baravar** va ushbu sohadagi xizmatlar hajmini **3 baravar** oshirish hamda ularning eksportini **100 million AQSh dollariga** yetkazish nazarda tutilgan. Shu bilan birga, 2020–2022 yillarda elektron hukumat, telekommunikatsiyalar, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida hamda qishloq va suv xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha 268 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Mazkur vazifalarning bajarilishi yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Natija va xulosalar

Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, korrupsiyadan xoli hududda ishlash imkoniyatini yaratadi. U “xufiyona iqtisodiyot”ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi. Kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biror ma'lumotni bekitish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji qolmaydi. Buning natijasida esa iqtisodiyotga yo'naltirilgan qonuniy mablag'lar joy-joyiga sarflanadi. Ayniqsa, soliqlarning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, byudjet taqsimoti oshkoraligi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar, maktablar, shifoxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq o'z manziliga maqsadli yetib borishiga zamin yaratiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni bizni taraqqiyotga eltadigan eng qisqa yo'l, deya atash g'oyat oqilona va odilona ta'rif bo'ladi. *Oxirgi ikki yil ichida* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan keng ko'lamli va kompleks ishlar olib borildi. Shu bilan birga, bugungi kunda vazirlik oldida Murojaatnomada aks etgan muhim vazifalar turibdi. Eng asosiy vazifa **“Raqamli O'zbekiston–2030”** konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo'lib, u o'z ichiga barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgan. Bunday yirik loyihani amalga oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining to'liq hamda kompleks o'zgarishiga, raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Muhim vazifalardan yana biri davlatimiz rahbarining “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlashdir. Qarorga asosan tasdiqlangan “Raqamli Toshkent” kompleks dasturida ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, kommunal sohalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilgan holda poytaxtimizning qiyofasini to'liq ijobiy o'zgartirish ko'zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [Axborot xizmati](#)
2. Toshkent Moliya instituti R.H. Ayupov va G.R. Boltaboevalar takliflari.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

4. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию РУз». 07.02.2017., № УП-4947.
5. Постановление Президента РУз от 3 июля 2017 года ПП-3832 «О мерах по развитию цифровой экономики в РУз».
6. Постановление Кабинета Министров «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию и внедрению цифровой экономики в Республике Узбекистан от 31 августа 2018 года.
7. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: "Iqtisod Molia" nashriyoti, 2019. 386 bet.
8. Гаврилов Л. П. Электронная коммерция: учебник и практикум для вузов / 3-е изд., доп. Москва : Издательство Юрайт, 2019. -477 с.
9. Лapidус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией.–М.:ИНФРА-М,2018.-381 с.
10. Маркова В.Д. Цифровая экономика: Учебник для ВУЗ ов (Высшее образование: бакалавриат). –М: Инфра-М, 2019. -186 стр.
11. И.А. Хасаншин, А.А. Кудряшов, Е.В. Кузьмин, А.А. Крюкова. Учебник для ВУЗ ов. –М: Горячая линия. –Телеком, 2019. -280 стр.